O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Shermatov Jaxongir Rasulovich

2026 - yil 4 - martdagi 274974 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, “Yunusobod tumani “Nurmakon” MFYdagi 250-son maktabni rekonstruksiya qilish (qo‘shimcha 480 o‘rin yangi bino qurish)

Buyurtmachi: TOSHKENT SHAHAR HOKIMIYATI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYASI DUK

Bosh loyihachi: "INTER ACTIVE-TEAMS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Davlat byudjed mablag'lari

Bosh pudratchi: Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.

Qurilish turi: Rekonstruksiya

Murojaat raqami: 112619

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2025-yildagi rayosati majlisining 110-sonli bayoni.

1.2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil27-dekabrdagi PQ-393-sonli qarori.

1.3.O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan 2026-yil 19-yanvarda berilgan 1726-1726266-252713-sonli Arxitektura-Rejalashtirish topshirig’i.

1.4.“O‘ZGAShKLITI” MChJ Toshkent shahar va viloyat filiali tomonidan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to’g’risidagi 2026-yilgi xulosasi (28/8-21077-sonli shartnoma).

1.5.Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 23.02.2026-yildagi 01-02/14-10637 -sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.6.Toshkent shahar hokimligi bilan 2026-yilda tasdiqlangan hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi bilan kelishilgan loyihalash topshirig’i.

1.7.“Lider prof proekt” MChJ tomonidan ob’ektni Rekonstruksiya qilish talab etiladigan bino va inshootlarni texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xulosa.

1.8.“Toshkent shahar suv ta'minoti” AJning 2026-yil 09-fevraldagi 270/4-575-sonli texnik sharti.

1.9.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MChJ ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2026-yil 16-fevraldgi 26266166496 -sonli texnik shart.

1.10.“Veolia Energy Tashkent” MCHJ XK ning markazlashgan issiqlik ta’minotiga ulanish uchun 2026-yil 9-fevraldagi №ТЦ-4-071-sonli texnik shart.

1.11. Buyurtmachi va loyiha tashkilot o’rtasida 29.01.2026-yilda tuzilgan 219913-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko’ra “Ishchi loyiha” bo’yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- umumiy tushuntirish xati (UTX);
- bosh reja;
- arxitektura loyihaviy yechimlari bo’yicha chizmalar;
- konstruktiv loyihaviy yechimlari bo’yicha chizmalar;
- elektr ta’minoti tizimining loyiha yechimlari bo’yicha chizmalar;
- yong’indan xabarlash tizimlari loyihasi bo’yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlari tizimlarining loyihaviy yechimlari bo’yicha chizmalar;
- issiqlik va shamollatish tizimlari loyiha yechimlari bo’yicha chizmalar;
- obyektning energetik pasporti va issiqliktexnikasi hisob-kitobi;
- hisob-kitob smetasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Qurilish maydonining oziga xos xususiyatlari

- Qurilish maydonining zilzilabardoshligi-9 ball.
- Me’yoriy qor qatlami vazni-50kg/m.
- Me’yoriy shamol bosimi-38kg/m
- Yerni muzlash chuqurligi yer osti – 0,7m.

3.1. Bosh reja va arxitektura yechimlari.

Toshkent shahar, “Yunusobod tumani “Nurmakon” MFYdagi 250-son maktabni rekonstruksiya qilish yo‘li bilan qo‘shimcha 480 o‘rin yangi o’quv binosi qurish va maktabning mavjud binolarini mukammal ta’mirlash ishlaridan iborat.

Hudud balansi:

- maktab hududining umumiy maydoni – 26 402,0 m2;
- ja’mi qurilish osti maydoni – 4 663,0 m2;
- ko’kalamzorlashtirish maydoni – 11 398.0 m2;
- yo’lak qoplamalar maydoni – 10 341,0 m2;

Maktabning mavjud binolari: 1176 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan.

Bino 2 qavatli, binosi qisman yerto’lali, ikki qavat va chordoqdan iborat. Bino o’zaro bir biriga bog’langan 9 ta blokdan iborat hamda har bir blok geometrik jihatdan to‘g‘ri (to‘g‘ri to‘rtburchak) shaklga ega, bo‘rtiqlari yo‘q.

1-Blok- (umumiy ovqatlanish zali, oshxona, faollar zali, kutubxona, foye, yo’laklar, vestibyul, rekreasiya zonalari, zinaxona, texnik xonalar va hojatxonalar) o’q o’lchamlari:12,0x30,0m, ikki qavatli, qavat balandligi 2,9 ва 3,9m;

2-Blok- (sport zal) o’q o’lchamlari:11,8x24,0m, bir qavatli, qavat balandligi 5,8m;

3-Blok- (boshlang'ich sinf xonalari, to'garak xonasi, yo'laklar va zinaxona) o’q o’lchamlari: 9,0x42,0m, ikki qavatli, qavat balandligi 3,3m;

4-7-Bloklar (o'quv xonalari, mehnat xonalari, yo'laklar, zinaxona va nexnik xonalar) o’q o’lchamlari: 9,0x36,0m, ikki qavatli, qavat balandligi 3,3m dan;

8-Blok (o'quv xonalari, boshlang'ich sinf xonalari, to'garak xonasi, yo'laklar va zinaxona) o’q o’lchamlari: 9,0x33,0m, ikki qavatli, qavat balandligi 3,3m;

9-Blok (o'quv xonalari, yo'laklar, texnik xonalar va sanuzellar) o’q o’lchamlari: 9,0x33,0m, ikki qavatli, qavat balandligi 3,3m;

Binoning qurilish osti maydoni – 3651,97m2;

Binoning umumiy maydoni – 5598,8 m2;

Qurilish hajmi - 27186,94m3.

Maktab mavjud binosini mukammal ta’mirlashda quyidagi ishlar loyihada ko’rsatilgan:

-mavjud sinfxona eshiklarni buzish va yangisini o’rnatish;

-bino yo’laklaridagi mavjud yog’och derazalarni qayta bo’yash;
-elektr tarmoqlari va qurilmalarini buzish va yangisiga almashtirish;
-zinalar mavjud tutqichlarini yangisiga almashtirish,bo’yash ishlari;
-birinchi qavatdagi pol qoplamalarini buzish va yangisini qurish;
-bino shift va devorlarini eski bezaklardan qirib tozalash, bo’yash ishlari,ba’zi joylarda qaytadan suvoq qilish ishlari;
-binoning asosiy kirish qismi tom qoplamasini yangisiga almashtirish(profnastil)
- mavjud sinfxonalardagi sanitar jihozlarni yangilash;
-NBSh lar uchun yangi hojatxona tashkil etish;
- vertikal deformatsion chokni yopish;
- bino fasad qismlarida issiq-sovuqdan himoya qatlami bazalt, suvoq qilish ishlari hamda suyuq travertin bilan qoplash;
-poypesh qismlar issiq-sovuqdan himoya qatlami EPS, yaltiroq sirtli marmar plitasi bilan qoplash;
- NBSh lar uchun panduslar o’rnatish;
-bino kirish qismlariga peshayvonlar o’rnatish.
Loyihalanayotgan 480 o‘rin yangi o’quv binosi: uch qavatli, to'rtburchak shakldan va mavjud binodan ikki qavatli o'tish yo'lagidan iborat bo’lib o’q o’lchamlari 15,4x33,8m , o'tish yo'lagi o’q o’lchamlari 4,5x8,3m; qavat balandligi – 3,3m;
-Bino birinchi qavatida: mavjud binodan o'tish yo'lagi va yo'laklar, zina kataklari, defektolog xonasi, umumiy o'quv xonalari, NBSH uchun hojatxona, o’g’il bolalar hojatxonasi, lift va texnik xonalar joylashgan;
-Bino ikkinchi qavatida: mavjud binodan o'tish yo'lagi va yo'laklar, zina kataklari, o'qituvchilar xonasi, umumiy o'quv xonalari, NBSH uchun hojatxona, lift, o’g’il va qiz bolalar hojatxonasi joylashgan;
-Bino uchinchi qavatida: yo'laklar, zina kataklari, umumiy o'quv xonalari, NBSH uchun hojatxona, lift, o’g’il va qiz bolalar hojatxonasi joylashgan;
-Bino yerto'lasiz va chordoqli tomdan iborat;
-Bino karkasli tizimli bo'lib, poydevori 400-500 mm, quyma betondan alohida turuvchi va tasmasimon,tashqi devorlari 300 mm, D500-600 markali g'ovakli beton bloklardan, pardevorlari 150 mm D500-600 markali g'ovakli beton bloklardan qilingan
-Pollar: marmar, relin va keramik plitkalardan;
-Eshiklar: yong'inga qarshi metall eshiklar, MDf va alyuminiy profilli;
-Deraza romlari: PVX dan;
-Shiftlar:-osma gipsokarton va PVX panellar, shpaklevka, devor va to‘siqlarni takomillashtirilgan suvoq qilish, shiftlarni silliqlash suvga asoslangan emulsiya boyog‘i bilan bo‘yash;
-Ichki pardozlash: xonalarning vazifasi va texnologik jarayonlar hisobga olingan, yaxshilangan suvoq, gips asosli quruq aralashma, shpaklevka, suvga asoslangan emulsiya boyoq va balandligi 1500 mm sirlangan keramik plitkalar ishlatilgan;
-Tashqi pardozlash ishlari:bino fasad qismini pardozlashda sifatli va uzoq muddat o'z xususiyatini yo'qotmaydigan ashyolardan foydalanilgan;
-Fasad qismlarida issiq-sovuqdan himoya qatlami bazalt ,suvoq qilish ishlari hamda suyuq travertin bilan qoplash;
-Poypesh: yaltiroq sirtli marmar, qorishma bilan biriktirilgan;
-Tom yopmasi nishabli. H35-1000-0,5 markali profnastil qoplamadan. Yomg‘ir suvlari po‘lat tarnov bo‘ylab tashkil etilgan ichki tarnov orqali chiqib ketadi;

-Peshtoq-metall asoslarga o'rnatiladigan, bo'yalgan ruhlangan list (tunukabond);
-Favqulodda evakuasiya choralari ShNQ 2.01.02-04 "Bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi" talablariga mos holda olib borilgan.
-Binoni loyihalashda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 1 fevraldagi 14-06/1125-son buyrug'i inobatga olingan.
Binoning qurilish osti maydoni – 635,1m2;
Binoning umumiy maydoni – 1557,1 m2;
Qurilish hajmi - 6758,1m3.

3.2. Konstruktiv yechimlari.

Qurilish konstruksiyalarining texnik holatini va ularni rekonstruksiya qilish imkoniyatini baholash maqsadida texnik ko‘rikdan o‘tkazilgan. Tekshiruv natijalariga ko‘ra,mavjud bino konstruksiyalarining yaxlitligi qoniqarli deb baholandi va xulosada ko‘rsatilgan tavsiyalarga rioya qilgan holda mukammal ta’mirlash ishlarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

3.3. Yonginga qarshi texnik yechimlar.

Binoning yong’inga chidamliligi darajasi I.
Funktsional yong‘in xavfsizligi toifasi — F-4.1.
Binoning konstruktiv yong’in xavf sinfi - C0.
Loyihada favqulodda vaziyatlarda avtomatik yong’in signalizatsiyasi va ogohlantirish tizimi ko’zda tutilgan.

3.4. Energiya samaradorlik.

Binoning energiya samaradorligini oshirish maqsadida mazkur obyekt bo’yicha o’rab turgan konstruktsiyalarning issiqlik texnikasi hisob-kitobi ishlab chiqilgan. Loyihada binoni maishiy issiq suv bilan ta’minlash maqsadida muqobil issiqlik manbalari maktab mavjud binosi uchun 2 dona 500l li va loyihalanayotgan 480 o‘rin yangi o’quv binosi uchun 2 dona 500l li quyosh kollektorlarini (vodonagrivatel) ornatish ko’zda tutilgan. Yoritish tizimi uchun zamonaviy energotejamkor yoritish chiroqlaridan foydalaniladi.
Binoga quyosh elektr stansiyalarini o‘rnatish rejalashtirilgan. Quyosh stansiyasining umumiy quvvati 60 kVt bo’lgan jami 120 dona (har biri 500 Wt dan) quyosh panellar hamda quvvati 60 kVt bo'lgan bitta invertor o’rnatish loyihalashtirilgan.

3.5. Nogironligi bo’lgan shaxslarga sharoitlar yaratish bo’yicha.

Loyihada nogironligi bo’lgan shaxslar uchun qulay sharoit yaratish inobatga olingan bo’lib, binoga kirishda nogironlar uchun pandus va tutqichlar, nogiron shaxsning harakat yo’nalishni ko’rsatuvchi maxsus taktil belgilar va plitkalar, bino ichida alohida sanuzellar va boshqalar ko’zda tutilgan.

3.6. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Obyekt bo’yicha qurilish-montaj ishlarining yakuniy smeta xarajatlari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1Loyihalaniyotgan obyektning suv va oqava suv tizimi, isitish va shamollatish tizimi, elektr ta’minoti, yong‘inni xabarlash tizimi, video kuzatuv tizimi, strukturali kabel tizimi va tashqi elektr ta’minoti hamda tashqi issiqlik tizimlari tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan texnik shartlar hamda loyihalash topshirig‘iga muvofiq ta’minlash ko‘zda tutilgan.
4.2. Buyurtmachi tashkiloti O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256–sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo’yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo’yicha tegishli manfaatdor xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shaxar qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qaror talablariga amal qilsinlar. Obyekt bo'yicha buyurtmachi va tegishli vakolatli tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida soha ekspertlari xulosalarining izohlariga muvofiq loyiha-smeta hujjatlariga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-266 –son qaroriga muvofiq hamda ShNQ 2.07.02-24 asosida ishchi loyihaga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi "Respublikada ko'kalamzor- lashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-46-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qatiiy rioya etilsin.

6.3. Loyihani amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.

6.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.12.2019-yildagi PQ-4545-sonli qarorining bandlari bajarilsin.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 26.12.2018-yildagi "Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 1050-son hamda 15.05.1998-yildagi 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo'riqlash qoidalariga amal qilinsin.

6.6. Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2020-yildagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 "Qurilish issiqlik texnikasi" talablariga to'liq rioya qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli farmonining tegishli bandlarida ko'rsatilgan talablarga to'liq rioya qilinsin.

6.9. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.10. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 255-sonli qarori talablariqa rioya etilsin.

6.11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-son va 20.04.2022-yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat'iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha

yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021-yildagi 321-sonli qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi PQ-332-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo‘yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkaziladi.

6.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2025-yildagi PQ-393-sonli qarori hamda 24.12.2024-yildagi PQ-454-sonli Qarorining 4 -bandida tovar, ish va xizmatlarning narx qismi-Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi belgilanligi sababli qurilish materiallari narxlari ekspertiza tomonidan ko’rilmadi.

6.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldani PQ-266-sonli va SHNQ 2.07.02-22 hamda SHNQ 2.08.07-22 talablariga to‘liq amal qilinsin.

6.17. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan 2026-yil 19-yanvarda berilgan 1726-1726266-252713-sonli Arxitektura-Rejalashtirish topshirig’ining 14-bandiga asosan, buyurtmachi tomonidan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organi bilan kelishilsin.

7. Xulosalar.

7.1. Toshkent shahar, “Yunusobod tumani “Nurmakon” MFYdagi 250-son maktabni rekonstruksiya qilish (qo‘shimcha 480 o‘rin yangi bino qurish) ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Atabayev Daniyar Baxtiyarovich, Vakurova Irina Vladimirovna, Babayev Aloviddin Nizamudinovich, Musayev Rustam Talatovich, Sharaximov Xondamir Sharasulovich, Abduqodirov Jasurxo‘ja Abdukobil O‘g‘li, Karimov Mahmudjon O‘tkir O‘g‘li, Narmuxamedov Ilxom Nigmatovich, Akayev Javlon Israilovich

Bosh ekspert **AKAYEV JAVLON ISRAILOVICH**